

## BOSMAXONA ICHKI MUHITINING MIKROIQLIM KO'RSATKICHLARINI GIGIYENIK BAHOLASH

**Alisherov T.A., Shodmanov B.B.**

Toshkent tibbiyot akademiyasi

### ANNOTATSIYA

Texnikaviy rivojlangan mamlakatlarda aqliy mehnat bilan bog'liq kasalliklar insonni mehnatga layoqatli nogironlikga olib kelishi kuzatilyapti va uning rivojlanishida muxim rol o'ynaydi. Natijada va bu boradagi iqtisodiy yo'qotishlar tobora ko'payib boradi. Ruhiiy va xulq-atvori buzilganligi sababli nogironlik uchun uzoq muddatli to'lovlar nogironlik uchun barcha to'lovlarning 40% gacha, masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ruhiy kasalliklar tufayli ishlab chiqarishning umumiy xarajatlari har yili 136,3 milliard yevroni tashkil etadi. (Ruhiiy salomatlikning buzilishi erta nogironlikka olib keluvchi sabablardan biri bo'lib, yurak-qon tomir, onkologik va tayanch-harakat kasalliklarining rivojlanishiga olib keladi.

**Kalit so'zlar:** Bosmaxona, Poligrafiya, mikroiklim ko'rsatkichlari, changlanganlik, yorug'lik, aqliy mehnat, bog'liq kasalliklar, mehnatga layoqatli, bosmaxona ichki muhiti

Muammoning dolzarbligi. Tipografiya sanoatida mahsulotlarni bosib chiqarish sifati, ish tezligi, aniqligi juda ko'p omillarga bog'liq. Bunga kasbiy mahorat, xodimlarning tajribasi, jiqozlarning darajasi va imkoniyatlari, sarf materiallarining muvofiqligi, va ayniqsa tipografiya ishchi muhitining mikroiklim ko'rsatkichlariga bog'liq bo'ladi. Belgilangan muhim omillardan biri bu nafaqat ustaxonaning o'zida, balki tayyor bosib chiqarish, sarf materiallari, qog'ozni saqlash uchun omborda, bosmadan oldindan ishlov berish xonasida ham optimal mikroiklimni ta'minlash lozim. Tipografiya mikroiklimi-bu to'g'ri harorat, namlik darajasi, shamollatish, tozalik darajasi, konditsionerlash, yetarli elektr o'tkazuvchanligi yoki statik elektr ta'sirining etishmasligidir. Ishlab chiqarish muhitidagi mikroiklim ham xodimlar uchun optimal, mahsulotlar va materiallarni tayyorlash va saqlash uchun ham me'yorida bo'lishi kerak. Aks holda, insonning ish sifati va ishning tezligi, unumdorligi, ishchining umumiy holatiga, organizmning issiqlik boshqariluviga va diqqat-e'tiborni pasayishi olib keladi.

Tadqiqotda texnologik jarayonni boshqarish bilan mashg'ul bo'lgan (tipografiya misolida) kasbiy guruhlarining ishlab chiqarish muhitidagi mikroiklim ko'rsatkichlariga gigiyenik baho berishni maqsad qilingan.

Yilning issiq va sovuq davrlarida Toshkent tibbiyot akademiyasi bosmaxonasining chop etish va muqovalash xonalarining ishchi muhitidagi mikroiqlimining parametrlarini gigiyenik tekshruvdan o'tkazildi. Tekshiruv TMA-KU ilmiy tadqiqot markazi laboratoriyasi tomonidan olib borildi. Xona havosining harorati, namligi va uning harakat tezligini aniqlashda Meteoskop-M, changlanganlik GT - 331 (Aerosol Mass Monitor), xonalarning yoritilganlik darajasini aniqlashda Luxmetr TES-1330A (Digital Illuminance Meter) asboblardan foydalanildi. Tadqiqot ob'ektida mikroiqlim ko'rsatkichlarini o'lchash ishlari "Ishlab chiqarish xonalari mikroiqlimini sanitar-gigiyenik normativlari" SanQvaM № 0324-16 da keltirilgan talablarga mos ravishda olib borildi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, tekshiruv olib borilgan xonalaridagi mikroiqlim ko'rsatkichlari sovuq iqlim sharoitida chop etish xonasidagi havo harorati turli balandliklarda o'lchanganda o'rtacha  $23,5 \pm 0,5^{\circ}\text{C}$ , muqovalash xonasi havo harorati  $23,8 \pm 0,1^{\circ}\text{C}$ ; havoning namligi  $37,9 \pm 0,2$  va  $37,3 \pm 0,2\%$  ni; havoning harakat tezligi  $0,12 \pm 0,005$  va  $0,24 \pm 0,006$  m/sek ni tashkil etdi. Umumiy yoritilganlik darajasi tekshiruv natijalari shuni ko'rsatdiki, 1-tekshiruv xonasidagi yoritilganlik darajasi o'rtacha  $431 \pm 24,4$  va 2-tekshiruv xonasida  $409,3 \pm 24,4$  Lk ni tashkil qildi.

Issiq iqlim sharoitida esa xuddi shu xonalardagi havo harorati  $23,8 \pm 0,1^{\circ}\text{C}$  va  $24,5 \pm 0,1^{\circ}\text{C}$ ; havo namligi  $35,5 \pm 1,0$  va  $30,5 \pm 0,26\%$ , havo harakat tezligi  $0,02 \pm 0,006$  va  $0,06 \pm 0,005$  m/sek ni; yoritilganlik darajalari  $386,6 \pm 19,95$  va  $307 \pm 18,3$  Lk ni tashkil qildi. "Ishlab chiqarish xonalari mikroiqlimini sanitar-gigiyenik normativlari" SanQvaM № 0324-16 bo'yicha tekshiruv ob'ektidagi issiq va sovuq iqlim sharoitidagi xona havosi harorati me'yor darajalarida ekanligini ko'rsatdi (issiq iqlim sharoitida haroratning optimal me'yor chegaralari  $23-25^{\circ}\text{C}$  gacha, sovuq iqlim sharoitida  $18-20^{\circ}\text{C}$ ), havo namligi va uning harakat tezligi biroz me'yordan past darajada ekanligini aniqlandi (me'yorda havo namligi 40-60%, havoning harakat tezligi 0,3 m/sek), bu ko'rsatkichlarni me'yor chegaralaridan og'ishiga xonalarning konditsionerlardan muntazam foydalanishi va xonalar havosi etarli darajada shamollatilmaganligi sabab bo'lishi mumkin.

Tadqiqot ob'ektlaridagi umumiy yoritilganlik darajalari QMQ 2.01.05-2019 "Tabiiy va sun'iy yoritilganlik" qurilish me'yor qoidalariga mos bo'lib, u 385-455Lk ni tashkil qildi (me'yorda umumiy yoritilganlik 300-400Lk).

Xulosa qilib aytganda, bosmaxona ichki muhiti amaldagi talablarga javob beradi va bu ishchilar salomatigi va ish unumdorligini belgilaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Avdeev V. V. Protection labor in Poligraphy industry. // Accounting in publishing and printing – 2010 – 11 (143)- S.43).
2. Bukhalkov M.I. Improving the methods of labor rationing in industry // Rationing and wages in industry. – 2013. №. 8. – P.18.
3. Klimova M.A Comprehensive assessment of the labor process of a worker: On the example of the printing industry // Ph.D. economy Sciences.-2000, p.253.
4. “Sanitary and hygienic requirements and rules of microclimate of the production rooms” №. Of 0324-16-2016 p-20.
5. “Daylighting and artificial lighting” №. 2.01.05-19-2019, p-79